

**XI-XIV ASRLARDA BITILGAN QO‘LYOZMALAR DAGI QADIMIY
SHIFOBAXSH GIYOHLAR TARKIBI VA TARJIMASI**

Xalimjonova Mavluda O‘ktamjon qizi

*Namangan Davlat Universiteti magistratura bo‘limi adabiyotshunoslik inglez
adabiyoti 2-bosqich magistranti Andijon viloyati Oltinko ‘l tumani
28-mumiy ta’lim maktabi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix uning ahamiyati XI-XIV asrlarda bitilgan qo‘lyozmalardagi qadimiy shifobaxsh giyohlar tarkibi va tarjimasi haqida yoritilgan bo‘lib, tabiiy shifobaxsh giyohlarning inson hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati, O‘zbekiston xalq tabobati ming yillik an’analar borasida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: xalq taboabati, shifobaxsh giyohlar.

Abstract: In this article, the history and significance of the composition and translation of ancient medicinal herbs in manuscripts written in the XI-XIV centuries are highlighted, the role and importance of natural medicinal herbs in human life, and the thousand-year traditions of folk medicine of Uzbekistan are explained.

Keywords: folk medicine, medicinal herbs

Аннотация: В данной статье освещены история и значение состава и перевода древних лекарственных трав в рукописях, написанных в XI-XIV веках, роль и значение природных лекарственных трав в жизни человека, тысячелетние традиции Народная медицина Узбекистана.

Ключевые слова: народная медицина, лекарственные травы.

O‘zbekiston xalq tabobati ming yillik an’analarga ega. Vatanimiz hududida azal-azaldan dunyoga mashhur tabiblar yashab ijod qilgan, ko‘plab kasalliklarga shifo topgan, aholi dardiga malham bo‘lgan. Bugun dunyo mamlakatlari aholisi, asosan rivojlangan davlatlar aholisining tabiiy, arzon, zarari kam va xavfsiz xalq tabobati usullari va dori vositalariga qiziqishi ortib bormoqda. Bizning diyorimizda buyuk tabiblar o‘tganini va ulardan ulkan ma’naviy meros qolganini hech kim inkor eta olmaydi.

XI-XIV asrlarda bitilgan qo‘lyozmalardagi qadimiy shifobaxsh giyohlar tarkibi va ularning tarjimasi borasida to‘xtalamiz. Markaziy Osiyo khalqlari madaniyatini O‘rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlarga borib taqaladi. Shulardan Abu Ali ibn Sino bo‘lib, u Ovro‘poda Avisenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Bukhoroning Afshona qishlog‘ida, hijriy 370 (980) yilning safar oyida, amaddor oilasida tug‘ildi. 1037 yil 18 iyunda Isfahon shahrida vafot etdi. Ibn Sinoning hayot yo‘li o‘zi yozgan tarjimai holi va shogirdi Juzjoniy tomonidan

qoldirilgan manbalardan malum. Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari, dunyoqarashining shakllanishida qadimgi Ibn Sinoning tibbiyat sohasidagi asarlaridan «Kitob al-qonun fit-tibb» («**Tib qonunlari**»), «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko‘rish haqida kitob»), «Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih» («Tib haqida hikmatli so‘zlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), «Fil-hindubo» («Sachratqi o‘simgili haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy ko‘rsatmalar haqida») kabi asarlari mavjud.

Ularning har biri malum sohani izchil, har tomonlama yoritibberadi. Birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeta, vazifalari, bo‘lim va metodlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari, sog‘liqni saqlash yo‘llari, kishi anatomiyasi haqida mazmundor, aniqligi bilan kishini taajjubda qoldiruvchi qisqacha ocherk, sog‘liqni qanday saqlash kerakligi haqidagi talimot (keyinchalik gigiena deb nomlangan) bayon etiladi.

«Qonun»ning oddiy dorilarga bag‘ishlangan ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va istemol qilish usullari bayon etilgan.

Abu Ali Ibn Sino ushbu asarida shifobaxsh giyohlar tarkibi va ularning tarjimasi borasida alohida-alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan arpabodiyonni qizdirib, tutuni hidlansa bosh og‘rig‘i va bosh aylanishi to‘xtatishini ta’kidlagan. Uni ezib, atirgul moyi bilan aralashtirib quloq og‘rig‘ini davolagan. Ibn Sino arpabodiyondan siyidik ajralishini kuchaytirishda, bachadon, jigar va taloq faoliyatini yaxshilashda, eski bezgakni davolashda ham foydalangan. Behi mevasidan tayyorlangan damlamani dizenteriya, yo‘g‘on ichakning yallig‘lanishini davolashda, behi shirasi bilan astma, qon tupurish va qayt qilishni to‘xtatishda, chanqoq hamda miya og‘rig‘ini qoldirishda ishlatgan. Gulxayri qadim zamonlardan beri shifobaxsh o‘simgilik sifatida ishlatilib kelinadi. Abu Ali Ibn Sino gulxayri ildizidan, bargidan va urug‘laridan tayyorlangan damlama bilan yo‘tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan. Buyuk tabib gulxayri ildizi asosida tayyorlangan dori-darmonlarni ko‘krakni yumshatuvchi, balg‘am ko‘chiruvchi omil sifatida tavsiya etgan. Do‘lana mevasini ich ketishini to‘xtatuvchi vosita sifatida tavsiya etgan. Tabib yong‘oqning barg shirasini iliq holda quloq ichi yiringlaganda tomizgan. Yong‘oq po‘stloqg‘idan tayyorlangan qaynatmani bachadondan qon ketishini to‘xtatishda va gjija haydovchi omil sifatida tavsiya etgan. Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobining 2-tomida shunday deyilgan: "...Yovvoyi zaytun shirasi quritilib, kulcha qilinadi va quloq oqmasini davolashda ishlatiladi ... Chayon solib qo‘yilgan zaytun yog‘i quloq og‘rig‘iga tomiziladigan dorilarning eng qimmatlisidir ... Yelimi ko‘zga tushgan oq va mazguz qatlamining dag‘allanishiga qarshi ishlatiladi". Ali Ibn Sino ham qora ziraning mevasi yurak bezovtalanishini to‘xtatuvchi, hiqichoq qoldiruvch, yel va gjija haydovchi, ovqatni hazm bo‘lishiga yordam beruvchi, terlatuvchi omil sifatida tavsiya etadi. Isiriqni kuymich asablari shamollaganida, tizza va suyaklar qaqqashab og‘riganida, og‘riq qoldiruvchi omil sifatida

ishlatishni tavsiya etgan.Qisqa davr ichida Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobi barcha mamlakatlarda foydalanadigan dunyo miqyosidagi entsiklopediyaga aylandi.

O‘rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyning oxirgi asari -«Dorivor o‘simliklar haqidagi kitob»ining qo‘lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar «Saydana» nomi bilan mashhur Bu asarda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning to‘la tavsifini bergen. Jumladan “Saydana” asarida 1116 tur dorivorni tavsiflaydi. Shundan 750 turi o‘simliklardan, 101 turi hayvonlardan, qolgan 255 turi minerallardandir. “Saydana” asarining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda Abu Rayxon Beruniy dorishunoslik o‘zi alohida fan bo‘lishligini ta’kidlab, shu bilan farmokologiya fanini asoslaydi. Beruniyning mazkur asarida keltirilgan va tibbiyotda hozir ham keng qo‘llanib kelinayotgan, ayrimlari bilan tanishtirmoqchimiz.

Abujahl tarvuzi-ildizidan tayyorlanadigan qiyom akofit preparati tayyorlashda ishlatiladi, u og‘riq qoldirish, qon to‘xtatish xususiyatiga egaligi, bodom mag‘zi tarkibida 42-62 % moy, vitamin B₂, 2 % emulsiya oshqozon-ichak og‘rig‘ini qoldirish, bodom moyi esa ich yumshatuvchi dori sifatida ishlatilishi, gulxayri ildizida shilimshiq moddalar, kraxmal, aspargin mavjud bo‘lib, balg‘am ko‘chiruvchi, nafas yo‘li yallig‘lanishiga qarshi preparat tayyorlashda qo‘llanilishi, mavrakdan efir moyi olinib, yaralanishga qarshi muhofaza vositasi tarzida qo‘llanilishi, jutning ko‘sak holidagi mevasi sentyabrdan pishib, urug‘idan yurak glikozidlari tayyorlanishi, igir ildizpoyasida efir moyi, vitamin C, kraxmal va oshlovchi moddalari mavjud bo‘lib, ishtahani ochishi, ovqat hazmini yaxshilashi, buyrak, jigar va o‘t pufak kasalliklarini davolash uchun dori tayyorlashda foydalanishi, kanakunjut urug‘idan moy, oqsil, zaharli ritsiyuritsin alkoloidi olinishi, shuningdek, malham va boshqa dorilar tayyorlanib, ilmiy tibbiyotda qo‘llanilishi, qarafs urug‘ida moy, oqsil, flavon glikozidi, apegenin, vitamin C, karotin muddasi borligi, sukapichgravean preparati olinib, kuchli siydik haydovchi xususiyatga egaligi, xmel tarkibida efir moylari, smola, xmelin alkoloidi mavjudligi, mingdevona ildizidan quyuq va quruq ekstrakt dori va moy olinib, bargi bronxial astmada ishlatilishi, ro‘yan ildizpoyasidan tayyorlangan ekstrakti ilmiy tibbiyotda qo‘llanilishi, dalachoy (sariqchoy) yer osti qismida 10-12 % oshlovchi moddalar, 0,4 % giperitsin, bo‘yoq moddalar, flavinoidlar, karotin, vitamin C mavjudligi, yer usti qismidan damlama, qiyom, suyuq ekstrakt va bakteriorsidimanin preparat tayyorlanishi, sachratqi ildizida achchiq glikozidlintabin, inulin, qand muddasi B₁ vitamini, bargida C vitamin bor bo‘lib, sachratqidan tayyorlangan suyuq ekstrakt qand kasalini davolashda ishlatilishi, sano bargidan damlama va kukun tayyorlanadi, surgi sifatida ishlatilishi, shvid(bodiyon) qon bosimini pasaytirishda qo‘llanilishi, qizilmiya(shirinmiya) ildizida 23% glyukarrin, likviritin, likviritozid, likviriton, flabinoidlar bo‘lib, nafas yo‘li kasalliklarida balg‘am ko‘chiruvchi, surunkali qabziyatda esa yengillashtiruvchi dori sifatida ishlatilishi, yalpiz bargidan damlama,

efir moyida yalpiz suvi, qiyom, mentol, migren qalami, validol tayyorlanib, bu dorilar efir moyidan tayyorlangan yalpiz suvi va qiyomi ko‘ngil aynishini qoldirishi, ovqat hazm qilish, qulqoq, burun, nafas yo‘llari kasalliklari, tish og‘rig‘ini qoldiradigan migren qalami tayyorlanishi alohida qayd etib o‘tilgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mazkur dorivor o‘simliklar Beruniy davrida tabobatda keng iste’molda bo‘lgan va tibbiyotda ko‘p asrlar taraqqiyot yo‘lida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan, hozir ham farmakologiyada katta ahamiyatga egadir. A.R.Beruniy yoshligidan to umrining oxirigacha tabiarni o‘rganishga katta ahamiyat bergen. Bu haqda “Saydana” asarida shunday hikoya qiladi: “Yoshligimdanoq qandoq bo‘lsa ham ma’rifat olishga qattiq berilgan va shundan lazzatlangan edim. Shohid keltirish yuzasidan shuni aytish kifoya: yerimizga bir rumlik kelib qolgan edi. Men unga donlar, urug‘lar, mevalar, o‘simliklar va boshqa narsalar keltirib nomlarini so‘radim va ularni yozib oldim”.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda O‘zbekistonda 112 turdag'i dorivor o‘simliklardan tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan. Ularning 80% ini tabiiy holda o‘suvchi giyohlar tashkil etsada, so‘nggi yillarda katta maydonlarda madaniy plantasiyalar tashkil etilmoqda. Bir necha boy biologik relyefli o‘lkalar chorrahasida joylashgan O‘zbekistonning o‘simlik dunyosig‘oyatda rang-barang. Maftunkor ona tabiatimizda uchraydigan ko‘plab turlarnoyobligi, eng asosiysi, shifobaxsh xususiyatlarga ega ekanligi bilan alohida qiymatga ega. Gap shundaki, yurtimiz nabotot olamidagi 4,3 mingdan ortiq o‘simliklardan 750 turining dorivorligi aniqlangan. Masol tariqasida **tirnoqgul (kalendula)** dorivor o‘simligi oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda tabiiy, samarali vosita hisoblanadi. **Moychechak (romashka)** dorivor o‘simligi tabobatda tanadagi shamollahslarni, yallig‘lanishlarni davolash, ovqat hazm qilish tizimi faoliyatini yaxshilash, saratonning oldini olish va xolestirin miqdonini pasaytirishda qo‘llaniladi. **Dorivor asorun (valeriana lekarstvennaya)** o‘simligidan xalq tabobatida tabiiy tinchlantiruvchi, yurak kasalliklarini davolashda samarali vosita sifatida foydalaniladi. **Na’matak.** Tabobatda va zamonaviy tibbiyotda foydalaniladigan na’matak mevasi C vitaminiga boy bo‘lib, insonning immun tizimini mustahkamlash xususiyatiga ega. Shuningdek, u tomirlardagi qonni suyultirib, qon bosimini tushiradi, shamollah va grippni davolashda asqotadi.

Isiriq qadim zamonlardan beri an’anaviy xalq tabobatida keng qo‘llanib kelingan. Hozir ham har bir xonadonda isiriqdan foydalaniladi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning ming xil dardga davoligi xalq orasida ma’lum va mashhur. Ayniqsa, yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktikaning eng ishonchli an’anaviy usuli hisoblanadi. Abu Bakr ar-Roziyning “Chechak va qizamiq haqida kitob” nomli asarida isiriq tutatish qizamiq, bezgak kabi yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolashda ijobiy ta’sirga egaligi bayon qilingan.

Garchi koronavirusga qarshi isiriq tutunining samarasini tasdiqlovchi ilmiy isbot bo‘lmasa-da, u har qanday yuqumli kasalliklarni oldini olishda foydalanish ijobiy samara beradi. Chunki isiriq tutuni inson organizmiga turli viruslarning kirishiga yo‘l qo‘ymaydi Ta’bir joiz bo‘lsa, ular “yashil sayyoramiz”ning bamisolari xazinasidir. Biroq bundan nechog‘li foydalana olyapmiz? Tabiiy holda o‘suvchi shifobaxsh giyohlarni asrab-avaylash, madaniylashtirish va ko‘paytirish ishlarining hozirgi ahvoli qanday?

Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda dorivor o‘simliklarning 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan. Jumladan, 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanilmoqda. Agar keyingi paytda tibbiyot va farmatsevtika sanoatida shifobaxsh o‘simliklarga bo‘lgan talab tobora ortib borayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, jabhada qo‘lga kiritilayotgan natijalar mavjud imkoniyat darajasida emasligi ayon bo‘ladi. Shu ma’noda, Prezidentimizning joriy yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ayni vaqtida qabul qilingan muhim hujjatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “100 MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI”

O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni muvofiqlashtirish qo’mitasi. Toshkent islam universiteti«YANGI NASHR», 2011

2. Internet saytlari va metodik qo‘llanmalar.